

KONSEPTGA DOIR MULOHAZALAR

Mamasoliyev Rustamjon, FarDU

Annotatsiya: Jahon tilshunosligida turli lingvomadaniyatlar doirasida til voqeligini tizimli tahlil qilish va til vositalarini lingvokulturologik yoʻnalishlarda oʻrganish yetakchi oʻringa koʻtarilmoqda. Xususan, bunda tilning struktur-grammatik, funksional xususiyatlarini har tomonlama bilishga doir bir qancha nazariy asoslangan paradigmalar paydo boʻlib, tillarni tipologik jihatdan oʻrganishga boʻlgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

Kalit soʻzlar: *muallim, konsept, lingvomadaniy, munosabatlar, tillar.*

Аннотация: В мировой лингвистике ведущее положение завоевывают системный анализ языковой действительности в рамках различных лингвокультур и исследование языковых средств в лингвокультурологических направлениях. В частности, появляется ряд теоретически обоснованных парадигм комплексного познания структурно-грамматических и функциональных особенностей языка, что еще больше усиливает необходимость типологического изучения языков.

Ключевые слова: учитель, понятие, лингвокультурные, отношения, языки.

Abstract: In world linguistics, the systematic analysis of language reality within the framework of different linguistic cultures and the study of language tools in linguistic-cultural directions are gaining a leading position. In particular, a number of theoretically based paradigms for the comprehensive knowledge of the structural-grammatical and functional features of the language appear, which further strengthens the need to study languages typologically.

Key words: teacher, concept, linguistic and cultural, relations, languages.

Kirish. Jahon tilshunosligida turli lingvomadaniyatlar doirasida til voqeligini tizimli tahlil qilish va til vositalarini lingvokulturologik yoʻnalishlarda oʻrganish yetakchi oʻringa koʻtarilmoqda. Xususan, bunda tilning struktur-grammatik, funksional xususiyatlarini har tomonlama bilishga doir bir qancha nazariy asoslangan paradigmalar paydo boʻlib, tillarni tipologik jihatdan oʻrganishga boʻlgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Shu sababli turli oilaga mansub tillarda birliklarni tizimli ravishda kategorial-semantik tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida konseptosferani turli uslubda nazariy-amaliy aspektda oʻrganishga ehtiyoj ortib bormoqda. Natijada ularni alohida madaniy konseptlar doirasida oʻrganish, til semantik maydonidagi xususiyatlarini tavsiflash maqsadida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Konsept tushunchasi N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, Sh.Usmonova, D.Lutfullayeva, Sh.Iskandarova, M.R.Galiyeva, A.A.Abduazizov, D.U.Ashurova, M.D.Djusupov, A.E.Mamatov, Sh.Safarov, Oʻ.Q.Yusupov, Gʻ.Xoshimov, J.Yakubov, G.Ergasheva, Z.A.Kasimova, D.Qozoqboyeva kabi tilshunos olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Muayyan millat, uning tili, madaniyati, dini, tarixi, iqlimi, turmush tarzi, qadriyatlar – umuman, atrofdagi olamning lisoniy qiyofasi lugʻatlarda oʻz aksini topadi. Shu bois soʻnggi yillarda jahon leksikografiyasida lugʻatlarning olamning milliy lisoniy manzarasini oʻzida aks ettirishi masalalariga boʻlgan qiziqish ortib bormoqda. Til konseptual voqelikni ifodalashning eng muhim vositasi sifatida olam tasvirini aks ettiradigan zaruriy umumiy tushunchalarni toʻplaydi va lugʻat orqali taqdim qiladi. Ayniqsa, kichik yoshdagi foydalanuvchilar uchun yaratilgan lugʻatlar, xususan, entsiklopedik lugʻatlarda milliy madaniyat, qadriyatlar, urf-odatlar, xalqning ijtimoiy-siyosiy hayotiga doir tushunchalar eng sodda va tasvirli koʻrinishlarda foydalanuvchiga taqdim etiladi.

Hozirgi zamon tilshunosligida konsept tabiatini oʻrganishga katta ahamiyat berilmoqda. Biroq, konseptning mohiyati ochilishi yuzasidan ayrim savollar ochiqlicha qolmoqda. Mazkur

terminni tahlil qilishda turlicha yondashuvlar mavjud. Konseptual va madaniy yo‘nalish rus lingvistik tadqiqotlarida muhim o‘rin egallay boshladi va tartibli xarakterga ega. Ushbu soha doirasida V.P.Neroznak, D.S. Lixachev, Y.S. Stepanov, A. Vejbitskaya, A.P. Babushkin, N.D. Arutyunova, S.X. Lyapin, V.I. Karasiklarning tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Tilshunoslikda “konsept” atamasi ayni paytda eski va yangi tushunchadir. Yaqin-yaqingacha u “tushuncha” atamasiga teng deb qabul qilingan.

E.S.Kubryakova “konsept” atamasini ma’no muammosini hal qiladigan jixati bilan bog‘laydi, so‘zning voqeligi, nutqni fikrlash faoliyatini tasniflash jarayonlaridagi rolidir, shuning uchun tilning semantikasini tasvirlashda bilim pozitsiyalaridan foydalanishi qonuniy hisoblanadi. Kognitiv atamalarning qisqacha lug‘atida konseptning quyidagi ta’rifi taklif etiladi: “Konsept – ongimizning aqliy resurslari birliklarini va insonning bilim va tajribasini aks ettiruvchi axborot tuzilmasini tushuntirishga xizmat qiluvchi atamadir”.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа: Монография. – Краснодар, 2002. – 142 с.
2. Воркачев С.Г. Счастье как лингвокультурный концепт / С.Г. Воркачев. – Москва, Гнозис, 2004. – 200 с.
3. Ворф В. Лингвистической относительности гипотеза. – Москва, 1956. – С. 267.